



TA'LIMDA ALOHIDA EHTIYOJ BO'LGAN BOLALAR OILASINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO'LLAB- QUVVATLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Narmetova Yulduz Karimovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari doktori(DSc)

Jo'rayeva Kamola Abdumalik qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti (KIUT) Maxsus
pedagogika 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17797565>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 28-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 30-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

*inklyuziv ta'lim, raqamli
texnologiya, psixologik qo'llab-
quvvatlash, oila, masofaviy ta'lim,
axborot muhiti.*

ABSTRACT

Maqolada ta'limda alohida ehtiyojli bolalar oilalarini psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashning zamonaviy shakllari va raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Ilmiy-tahliliy asosda milliy va xalqaro me'yoriy hujjatlar tahlil qilingan hamda raqamli ta'lim muhitida inklyuziv yondashuvni rivojlantirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Inklyuziv ta'lim — har bir shaxsning imkoniyatidan qat'i nazar, ta'lim olish huquqini ta'minlovchi zamonaviy tizimdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 oktyabrdagi PF-5283-son "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida ta'limda alohida ehtiyojga ega bolalar uchun psixologik, pedagogik va ijtimoiy yordam tizimini yaratish vazifasi belgilangan. Shu bilan birga, 2022 yil 20 iyunda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 355-son qarorida "Inklyuziv ta'lim markazlari faoliyatini takomillashtirish" vazifalari belgilanib, raqamli ta'lim muhiti va masofaviy maslahat xizmatlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan [1,3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2020 – 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va yo'riqnomani amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlanib, ta'limga tatbiq etilmoqda. Mazkur qaqorning ijrosini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom bilan inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi; o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi; inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tartibi; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'lim olishda va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko'maklashish tartibi belgilangan [2].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar orqali oilalarga qo'llab-quvvatlash xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlari ortib bormoqda. Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi — raqamli texnologiyalar asosida alohida ehtiyojli bolalar oilalarini psixologik-pedagogik jihatdan samarali qo'llab-quvvatlash usullarini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Alohida ehtiyojli bolalar — bu jismoniy, aqliy yoki sensor rivojlanishida cheklanishlar bo'lgan, ammo ta'lim va ijtimoiy muhitda moslashish imkoniga ega bo'lgan shaxslardir[5].

Oilalarda bunday bolalarning mavjudligi ko'pincha emosional stress, ijtimoiy izolyasiya va axborot yetishmasligi bilan kechadi. Shu sababli, davlat tomonidan bunday oilalar uchun psixologik-pedagogik maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish zarur.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish "Barkamol avlod" strategiyasi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020 yilgi tahrir) asosida amalga oshirilmogda. Bu hujjatlarda bolalarning barcha turdagi ta'lim muassasalarida teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kafolatlanadi[4].

Oilani qo'llab-quvvatlash tizimi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: bolaning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan individual maslahatlar; ota-onalar uchun psixologik trening va seminarlar; pedagoglar va defektologlar bilan hamkorlikda bola uchun individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, bola rivoji faqat ta'lim muassasasida emas, balki oila muhitida ham qo'llab-quvvatlanishi zarur 5). Shu nuqtai nazardan raqamli muhitda oila bilan pedagog va psixologlar o'rtasida uzluksiz muloqotni ta'minlash muhimdir.

Raqamli texnologiyalar oilalarga masofaviy ravishda yordam berish imkonini yaratadi. Ular quyidagi shakllarda samarali foydalaniladi:

1. *Onlayn maslahat platformalari:* Zoom, Google Meet, Telegram guruhleri orqali psixolog va defektologlar bilan muloqot qilish (Ibrohimova, 2021).
2. *Mobil ilovalar:* "InclusiveApp", "Speech Helper", "AutiCare" orqali bolaning rivojlanishini kuzatish va tavsiyalar berish.
3. *Vebinarlar va videodarslar:* pedagogik savodxonlikni oshirish uchun ota-onalarga masofaviy treninglar tashkil etish.
4. *Onlayn qo'llab-quvvatlovchi jamoalar:* tajriba almashish va emosional yordamni ta'minlaydi.

Shuningdek, O'zbekistonda "my.maktab.uz" platformasi va "Bilimlar portali" orqali inklyuziv ta'lim kontenti joriy etilgan bo'lib, bunda bola va ota-onalar uchun maxsus videomaslahatlar joylashtirilgan.

Finlyandiyada "eSupport Families" dasturi orqali ota-onalar uchun elektron maslahat markazlari tashkil etilgan bo'lib, ular psixologik, pedagogik va huquqiy maslahatlarni masofadan olish imkoniga ega (OECD, 2021). Yaponiyada "Digital Inclusion for All" dasturi asosida raqamli platformalar orqali oila, maktab va jamoa o'rtasida ma'lumot almashish tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda esa inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida 2023 yilda "Inklyuziv ta'lim markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash" loyihasi amalga oshirila boshladi. Unda masofaviy psixo-pedagogik xizmatlar ko'rsatish uchun raqamli platforma yaratilmogda (VMQ №355, 2022).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar orqali oilalarga qo'llab-quvvatlash xizmatlari quyidagi samaralarni beradi: pedagogik va psixologik xizmatlarga yetishuvchanlik oshadi; ota-onalarning bilim va ko'nikmalari yaxshilanadi; bolaning individual rivojlanishini uzluksiz monitoring qilish imkoni yaratiladi.

Ta'limda alohida ehtiyoj bo'lgan bolalar oilasini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalar qo'llash bo'yicha qo'yidagi takliflar berish mumkin: inklyuziv ta'lim muassasalarida yagona raqamli maslahat platformasini yaratish; psixolog va pedagoglar uchun raqamli malaka oshirish kurslarini tashkil etish; oilalar uchun interaktiv ta'lim resurslari va multimedia kontentlar ishlab chiqish; ilg'or xorijiy tajribani milliy amaliyotga integratsiya qilish.

Shunday qilib, quyidagi xulosalar qilish mumkin:

1. Raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'lim tizimini kengaytirish va oilalarga yetarli yordam berishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

1. Alohida ehtiyojli bolalar oilalari uchun masofaviy maslahat markazlarini har bir hududda tashkil etish zarur.

2. Psixolog va pedagog kadrlar uchun raqamli savodxonlik bo'yicha maxsus kurslar joriy etish lozim.

Xalqaro tajribalarni milliy tizimga moslashtirish orqali inklyuziv muhitni yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 oktyabrdagi PF-5283-son "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10 oktabrdagi "Alohida talim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga talim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori, <http://www.lex.uz/docs/5085999>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 iyundagi 355-son qarori "Inklyuziv ta'lim markazlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahrir). – Toshkent, 2020.
5. Vigotskiy L. S. Psixologiya razvitiya rebyonka. — M.: Pedagogika, 1984. — 512 s.
6. Savelyeva N.A. Psixologo-pedagogicheskoye soprovojdenniye semi, vospityvayushchey rebyonka s OVZ. — SPb: Rech, 2019. — 164 s.
7. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. — Paris: UNESCO Publishing, 2020. — 98 p.
8. Qizi, Q. M. O., & Karimovna, N. Y. (2025). ZAIF ESHITUVCHI BOLALARGA IMO-ISHORA TILINI O'RGATISH. Central Asian Journal of Academic Research, 3(3), 183-186.
9. Ahmedova, M. T., & Narmetova, Y. K. (2022). "MUOSHARAT ODOBBI" ORQALI UQUVCHILARDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 336-340.
10. Ahmedova, M. T., & Narmetova, Y. K. (2023). BOLALARDA OLIY NERV FAOLIYATI TIPLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI TARBIYALASH. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 707-712.
11. Narmetova, Y. (2014). Kuzi ojiz va zaif kuzuvchi bolalar psixologik xususiyatlarining uziga hosligi.

12. Нарметова, Ю. К. (2023). Виды психосоматических расстройств и их характеристика у детей. *Gospodarka i Innowacje*, 33, 221-224.
13. Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). *Neuropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida*. *Общество и инновации*, 3(2), 103-109.
14. Ахмадова, М. Д. (2024). IQTIDORLI BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMDA IJTIMOIYLASHUVI. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(2), 8-17.

